

TARJIMADA MADANIY REALIYALARNI IFODALASH USULLARI

Toxirova Dilnoza

*Alisher Navo'i nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universitetining tarjima nazariyasi va
amaliyoti fakulteti 4-bosqich talabasi.*

dilnoza04102004@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida madaniy realiyalarni adekvat ifodalash masalasi tahlil qilinadi. Realialarning lingvokulturologik tabiati, ularni boshqa tilga ko'chirishda uchraydigan tarjimaviy muammolar, shuningdek, tarjimonning kompetensiyasi va strategik yondashuvlar o'rganiladi. Maqolada transliteratsiya, deskriptiv tarjima, analogik tarjima va izohli tarjima kabi usullarning samaradorligi ilmiy manbalarga tayangan holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Madaniy realiya, adekvatlik, ekvivalentlik, lingvokulturologiya, tarjima strategiyalari, realiya tarjimasi.

Globalashuv jarayoni sharoitida madaniyatlararo muloqotning ahamiyati keskin ortib bormoqda. Tarjima esa til vositasidan tashqari, “madaniyatlararo kommunikatsiyaning samarali vositasi” sifatida namoyon bo'ladi (Nida, 2001). Tarjimon o'z faoliyatida nafaqat til birliklarini, balki madaniy kodlarni, xalqning tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan bog'liq ruhiy qatlamni ham o'quvchiga yetkazishi talab etiladi. Madaniy realiyalar — bu faqat bir millat hayotiga xos bo'lgan, boshqa tillarda to'liq ekvivalenti mavjud bo'lmagan leksik birliklar. Shu bois ular tarjima jarayonida “eng murakkab elementlar qatoriga kiradi” (Vlahov & Florin, 1980). Mada'niy realiyalarni tarjima qilishda tarjimon ko'plab muammolarga duch keladi. Chunki har bir til o'z milliy dunyoqarashiga, tarixiy tajribasiga ega. Masalan o'zbek tilidagi “non”, “so'fi”, “mehmonnavozlik”, “choyxona” kabi tushunchalar boshqa tillarda aynan shu ma'noda mavjud emas. Bunday holatda tarjimon kontekstni saqlagan holda, mos tarjima strategiyasini tanlashi lozim.

Madaniy realiyalarning lingvokulturologik tabiati. Vlahov va Florinning ta'rifiga ko'ra realiyalar "muayyan millatning hayoti, madaniyati, urf-odatlar, tarixiy voqeliklari bilan bog'liq, boshqa tillarda aniq ekvivalenti bo'lmagan birliklar"dir (Vlahov & Florin, 1980). Masalan, o'zbek tilidagi; non, so'fi, mehmondo'stlik, choyxona kabi tushunchalar boshqa tillarda aniq semantik moslikka ega emas. Shu bois "realiyalar tarjimasida lingvokulturologik bilim ham lingvistik bilim kabi muhim o'rin tutadi" (Komissarov, 1990). Tarjimonning vazifasi — tanlangan usul orqali realiyani o'quvchiga tushunarli yetkazish, shu bilan birga asarning milliy koloritini yo'qotmaslikdir. Madaniy realiyalarni noto'g'ri tarjima qilish asar mazmunining buzilishiga, muallif niyatining noto'g'ri talqin etilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois tarjimon nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kompetensiyaga ham ega bo'lishi zarur. Tarjimada madaniy realiyalarni adekvat ifodalash jarayoni tarjimonning bilim va tajribasiga, shuningdek, madaniyatlararo sezgirligiga bog'liqdir. Har bir realiya — bu xalqmadaniyatining bir bo'lagi. Uni to'g'ri tarjima qilish orqali tarjimon nafaqat matn mazmunini, balki milliy ruhni ham o'quvchiga yetkazadi. Shunday qilib, madaniy realiyalarni tarjima qilish — til va madaniyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash san'atidir. Madaniy realiyalarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar Realiyalarni tarjima qilishda asosiy muammo — ekvivalentning yo'qligidir. Shuningdek: kontekstni yo'qotib qo'yish xavfi, milliy koloritning susayishi, tushunarsizlik yoki noto'g'ri talqin yuzaga kelishi, madaniy ziddiyatlar paydo bo'lish kabi holatlar kuzatiladi. Tarjimon vazifasi — bu muammolarni bartaraf etish orqali realiyaning mazmuniy va madaniy xususiyatini oquvchiga tushunarli ko'rinishda yetkazishdir. Madaniy realiyalarni tarjima qilishning asosiy usullari: Transliteratsiya; So'zning fonetik va grafik ko'rinishini saqlagan holda ko'chirish. Misollar; chapan, pilaf . kimono. Bu usul realiyaning milliy koloritini saqlab qolish imkonini beradi. Deskriptiv (ta'rifiy) tarjima; Realiyaning mazmunini tavsiflash orqali tarjima qilish. Misol: choyxona – tea house, a traditional place for social gathering. Nida (1964) bu usulni "dinamik ekvivalentlikni ta'minlovchi samarali vosita" sifatida baholagan. Analogik tarjima; Ma'nosi jihatidan yaqin tushunchani topish orqali tarjima qilish. Misol; Navro'z – Spring Festival. Bu usul realiyaning mazmunini o'quvchiga tushunarli qilish uchun qo'llaniladi. Tarjimada adekvatlik tushunchasi madaniy realiyalarni ifodalashda markaziy o'rin tutadi.

Adekvat tarjima nafaqat ma'no jihatidan moslikni, balki matnning pragmatik, estetik va madaniy xususiyatlarini saqlashni ham nazarda tutadi. E. Nida ta'kidlaganidek, tarjima jarayonida o'quvchining qabul qilish darajasi muhim bo'lib, realiya tarjimasida o'quvchi madaniy tajribasiga mos kelishi lozim (Nida, 1964). Madaniy realiyalar tarjimasida mutlaq ekvivalentlikka erishish ko'pincha imkonsiz bo'lgani sababli, tarjimon funksional va dinamik ekvivalentlik tamoyillariga tayangan holda ish yuritadi. Bu esa tarjima jarayonini mexanik emas, balki ijodiy faoliyat sifatida talqin etishga asos bo'ladi

Xulosa

Madaniy realiyalar millat madaniy xotirasining ajralmas qismi bo'lib, ularni tarjima qilish tarjimondan yuqori mas'uliyat va madaniyatlararo sezgirlikni talab etadi. To'g'ri tanlangan tarjima strategiyasi orqali o'quvchiga nafaqat matn mazmuni, balki muallif ifodalagan milliy ruh ham yetkaziladi. Tarjimonning lingvokulturologik kompetensiyasi qanchalik yuksak bo'lsa, tarjima shunchalik adekvat va ishonarli bo'ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Найда Э. Наука о переводе. – Лейден: Brill, 1964. – 331 с.
2. Найда Э., Табер Ч. Теория и практика перевода. – Лейден: Brill, 2001. – 298 с.
3. Бейкер М. In Other Words: A Coursebook on Translation. – Лондон: Routledge, 1992. – 450 с.
4. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Рема, 1980. – 342 с.
6. Каде О. Проблемы перевода и переводоведения. – Лейпциг: Enzyklopädie, 1977. – 215 с.